



SOCIO-ECONOMIC AND POLITICAL-LEGAL FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE SOCIAL RESPONSIBILITY OF ENTREPRENEURS

Nurali Nishonaliyevich Siddiqov

Senior Lecturer, Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: entrepreneurship, law, social responsibility, social responsibility, socio-economic processes.

Received: 20.07.26

Accepted: 21.07.26

Published: 22.07.26

Abstract: This article examines the concept of the social responsibility of entrepreneurial entities, its role in societal development, and the key factors contributing to its enhancement. It also offers recommendations for improving the legal framework governing cooperation between the state and the business sector in order to achieve sustainable socio-economic development.

TADBIRKORLAR IJTIMOYIY MAS'ULIYATINI OSHIRISHNING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI

Nurali Nishonaliyevich Siddiqov

TDIU falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, huquq, ijtimoiylik, mas'uliyat, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas'uliyati tushunchasi, uning jamiyat rivojida o'rni va bu mas'uliyatni oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda davlat va biznes hamkorligining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ

Нурали Нишоналиевич Сиддиқов

Старший преподаватель кафедры философии

Ташкентского государственного экономического университета

О СТАТЬЕ

Ключевые предпринимательство, социальность, ответственность, социально- экономические процессы.	слова: право,	Аннотация: В статье рассматриваются понятие социальной ответственности субъектов предпринимательства, её роль в развитии общества, а также основные факторы, способствующие её повышению. Предложены рекомендации по совершенствованию правовых основ сотрудничества государства и бизнеса в целях достижения устойчивого социально-экономического развития.
---	-------------------------	---

Kirish. O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligi siyosiy, huquqiy jihatdan katta yutuq bo‘lgani holda, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy munosabatlarni tartibga solish va takomillashtirish mas’uliyatli ishlarning muhimi edi. Zero, mustaqillik arafasida va u e’lon qilingandan keyin yuzaga kelgan murakkab vaziyatdan faqat vazminlik, asosiysi, kuchli huquqiy asoslarni yaratgan holda chiqish eng oqilona yo‘l edi. Ayniqsa, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida iqtisodiyot sohasini huquqiy tartibga solish va rivojlantirish dolzarb masala edi. Kelajakda iqtisodiy hayot xususiy mulkchilik, erkin bozor munosabatlari, muqobillikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi sharoitida, bunday jarayonlarda tadbirkor mamlakat kelajagini belgilovchi, hal qiluvchi kuch bo‘lib qolishi nazariy jihatdan asoslandi. Shu boisdan mustaqillikning dastlabki kunlaridan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrda tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari bo‘lgan ko‘plab qonun, qonunosti hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular vaqt va ehtiyojdan kelib chiqib, yangilanmoqda.

Agar dastlabki yillarda mulkiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo‘lsa, keyingi yillarda iqtisodiyot, mulkiy munosabatlar, xususan, iqtisodiy munosabatlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lgan tadbirkorlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bunday huquqiy asos O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bo‘ldi. Unda mulkiy munosabatlarda xususiy mulk e’tirof etilgan bo‘lsa, keyinchalik konstitutsion qonunlarda bu huquqiy asos mustahkamlandi.

Amalda, minglab yoshlar, ayniqsa, chekka qishloq hududlarida nafaqat “Kamolot” tashkilotidan, balki davlat va jamoat tuzilmalari e’tiboridan ham chetda qolgan holatlar kuzatildi. Bu esa, o‘z navbatida, ish bilan band bo‘lmagan, ta’lim olmayotgan, muayyan ijtimoiy faoliyatga jalb etilmagan yoshlar qatlami kengayishiga olib keldi. Bunday uyushmagan yoshlar salbiy ta’sirlarga moyil bo‘lib, jinoyatga qo‘l urish, turli ekstremistik va terrorchilik harakatlariga tortilib qolish holatlari ko‘payib bordi.

Bunday xavfli holatlar yoshlarni tarbiyalash, ularning hayotiy maqsadlarini shakllantirish va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda davlat siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini yanada oshirdi. Shu sababdan, 2017 yilda "Kamolot"ning o'rnini bosuvchi yangi tashkilot – O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etildi. Ushbu tashkilot davlat va jamiyatning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishda markaziy o'ringa ega bo'lib, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ilm-fan, tadbirkorlik, madaniyat, sport va innovatsiya sohalariga jalb etish, yoshlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi islohot va tashabbuslari natijasida, jumladan, yoshlar o'rtasida kasbiy ta'limga bo'lgan qiziqish oshdi, yoshlar tadbirkorligi faollashdi, ularning ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki ortib bormoqda. Bu kabi chora-tadbirlar natijasida yoshlarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni mustahkamlanmoqda, ularning mustaqil fikrlovchi, faol, mas'uliyatli va zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan avlod sifatida shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, chekka hududlardagi yoshlarni qamrab olish, ular uchun zamonaviy ta'lim va ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy loyihalarga jalb etish kabi mexanizmlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan "Yoshlar – kelajagimiz" g'oyasi ham yoshlarning hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biriga aylandi. Ushbu g'oya asosida amalga oshirilayotgan dasturlar orqali yoshlar tadbirkorligiga imtiyozli kreditlar ajratish, ularni turli sohaga oid startaplar va innovatsion loyihalar bilan ta'minlash, kasbiy o'quv kurslari tashkil etish orqali yurtimiz yoshlarining iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun katta zamin yaratilmoqda. Demak, bugungi islohotlar jarayonida yoshlarga doir siyosat nafaqat deklarativ xarakterga, balki aniq amaliy yo'nalish va maqsadlarga ega ekanini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji uchun amalga oshirilayotgan tadbir va dasturlar, ularning hayotiy maqsadlarini shakllantirish, yoshlarga tadbirkorlik, ilm-fan va innovatsiya sohalarida yangi imkoniyatlar yaratish, nafaqat jamiyatni barqaror rivojlantirish, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ham hissa qo'shish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida yoshlar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan yo'nalishlarda muayyan natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tomonidan qo'yilayotgan maqsad va vazifalar, o'z navbatida, yoshlarning ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etishiga, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga o'z munosabatini bildirishga imkoniyat yaratmoqda. Bundan tashqari, davlat tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning biznes va tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, zamonaviy ta'lim tizimini ularga moslashtirish hamda ish o'rinlarini yaratish

borasidagi chora-tadbirlar ularning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini yanada mustahkamlamoqda.

Jumladan, yoshlarga imtiyozli kreditlar berish kasbiy ta'limni kengaytirish, innovasion loyihalarni jadallashtirish va ularni biznesga jalb qilish mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh kadrlar shakllanishiga ko'maklashmoqda. Bu borada ishlab chiqilgan dasturlar yoshlarga zamonaviy biznes modellarini, innovativ texnologiyalarni o'zlashtirish, global rivojlanish trendlariga moslashish va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, davlat va jamiyat yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish uchun zarur infratuzilmani yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Bu davlatning yoshlar siyosatiga bo'lgan e'tiborining oshishi va ularning ijtimoiy hamjamiyatga integratsiyasini ta'minlashga bo'lgan sa'y-harakatlarini ko'rsatadi. Mazkur harakatlar yoshlar faoliyatiga e'tibor berish va ularni samarali ijtimoiy loyihalarga jalb etish orqali jamiyat rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishlari hamda aholi turmushi bilan bog'liq eng muhim va o'ta dolzarb masalalarni har tomonlama tahlil etish, amaldagi qonun normalari, uni tatbiq etish amaliyoti va ilg'or xorij tajribasini o'rganish orqali, shuningdek, keng jamoatchilik ishtirokidagi muhokamalar natijasida qabul qilingan "Taraqqiyot strategiyasi" asosida bugungi kunda ustuvor ahamiyatga ega masalalarga yechim topish ishlari izchil davom etmoqda.

Ayni paytda, mazkur strategiya doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uning ijobiy natijalari ushbu yo'nalishdagi faoliyat mazmunida o'z aksini topib, belgilangan vazifalar samarali ijrosini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jumladan, Taraqqiyot strategiyasida belgilangan 13-, 20-, 29-, 50-, 70- va 71-maqсадlar bevosita tadqiq etilayotgan mavzuning mazmuni va maqsadi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati bu sohadagi tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda [1].

Shuni aytish kerakki, davlat, hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qonun, farmon, farmoyishlar, vazirlik va mahalliy davlat idoralari qarorlari mamlakat obodligi va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning namunasini Prezidentning tomonidan 2022 yil 9 noyabrda qabul qilingan PF-244-son "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] Farmoni misolida ko'rish mumkin. Mazkur hujjatda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda qo'llaniladigan aniq va samarali mexanizmlar belgilab berilgan.

Bu tadbirkorlik muhitini yanada liberallashtirishga qaratilgan bo'lib, sohani qo'llab-quvvatlashga doir huquqiy, siyosiy va ijtimoiy mexanizmlar izchil takomillashib bormoqda.

Biroq bu jarayonning falsafiy-psixologik jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Chunki berilgan imtiyoz va imkoniyatlar tadbirkorlarning barchasida teng darajada ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga kafolat bermaydi. Bu kabi ruhiy-axloqiy sifatlar hech qanday instrument yoki qurilma bilan o’lchanmaydi, balki ularning ongi va dunyoqarashidan kelib chiqadi.

Bu borada buyuk astronom va mutafakkir Mirzo Ulug’bekning “Voqealar osmon aylanishidan emas, odamlar niyati va qilmishlaridan kelib chiqadi”, degan ma’naviy o’gitiga tayanish joiz. Mazkur hikmat tadbirkorlik sohasida ham muhim ahamiyatga ega bo’lib, ishbilarmonlarning niyati va harakatlari faqat o’z manfaatlari uchun emas, balki yurt taraqqiyoti va kelajagi uchun xizmat qilishini anglatadi. Bunday hikmatni mantiqiy davomi sifatida Birinchi Prezidentning “Vatanim menga nima berdi emas, men vatanimga nima berdim”, “Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak” degan gaplari mazmun-mohiyatini ilmiy-ob’ektiv tahlil va targ’ib qilish ham mazkur tadqiqotning maqsadi, deyish mumkin [3].

Ma’lumki «Tadbirkorlik kodeksi» loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasiga qo’yilgan va 2024 yil 4 avgustda qabul qilindi [4].

Ushbu Kodeksda 8 ta qonun va 20 dan ortiq qonunosti hujjatlari birlashtirildi [5], u sohada yagona yondashuvni belgilaydi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati darajalarini aniq reytingini nazorat qiladigan normativ hujjatlar, xususan, Vazirlar Mahkamasining “Tadbirkorlik sub’ektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi.

Qonunlar, qonunosti hujjatlari, hukumat qarorlari, joylardagi hokimliklar agar to’g’ri va aniq ishlasa, albatta yuqori ijobiy natijalarga erishiladi. Aslida insoniyat erishgan ijtimoiy masalalardan biri bu huquqiy normalardir. Huquqiy normalarning bosh falsafasi – ijtimoiy munosabatlarda tenglik, adolat, shaffoflik kabi jihatlarini ta’minlash. Lekin, vijdon, mas’uliyat, vatanparvarlik, oriyat kabi tushuncha va tuyg’ular haqidagi g’oyalar, qarashlar nisbiy, ko’p hollarda mavhum va balandparvoz gaplar bo’lib qolayotganligi tez-tez uchrab turadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi “O’zbekiston Respublikasida “yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 394- sonli qaroriga muvofiq, sobiq Davlat statistika qo’mitasi tarkibida “Yashirin iqtisodiyotni statistik baholashni muvofiqlashtirish” bo’limi tashkil etildi;

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg’armasining texnik ko’mak missiyalari jalb etildi;

xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda “Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo’yicha uslubiy nizom” ishlab chiqildi;

2020 yilning avgust-sentyabr oylarida Qashqadaryo viloyatida va 2021 yilning may–iyun oylarida Namangan viloyatida jismoniy va yuridik shaxslarning norasmiy va yashirin faoliyatini o'rganish bo'yicha tanlanma statistika kuzatuvlari o'tkazildi;

2023 yilning avgust oyida respublikamizning 165 ta tumani bo'yicha 7 mingdan ziyod uy xo'jaliklarida transport, yashash va ovqatlanish, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga qilgan xarajatlarni o'rganish bo'yicha maxsus tanlanma statistika kuzatuvlari o'tkazildi.

Shuningdek, hajmi 2023 yilda qo'shimcha YaIM 125,6 trln. so'mga oshdi va jami 1 192,2 trln. so'mni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaIM hajmi qo'shimcha 3,4 mln. so'mga oshib, 32,7 mln. so'mga yetgan.

“Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin” [6] deb, belgilab qo'yilgan edi. 2023 yil 30 aprelda umumxalq referendumida asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 65 -moddasida: “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi” [7] deyilgan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, har qanday siyosat negizini uning falsafasi tashkil qilgani kabi, har qanday faoliyatni huquqiy tartibga solishning ham o'z falsafiy negizi bo'ladi. Zero, mustaqillik davrida iqtisodiy munosabatlarni siyosiy-huquqiy jihatdan tartibga solishning ustuvor tamoyili, uning kafolati, mamlakat farovonligi va istiqboli asoslari aynan tadbirkorlik, tadbirkorlarning ijtimoiy mas'uliyatiga bog'liqligi falsafasiga tayanadi. Shu falsafiy asosga ko'ra konstitutsiyada dagi qonunlarda quyidagi tartib-taomillar belgilangan:

“O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas” [8], deb belgilangan.

67-modda. “Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi” [9].

Unda quyidagi tartib-taomillar belgilangan edi: birinchi navbatda, xususiy mulk va tadbirkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida davlatning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda tadbirkorlarning ijtimoiy mas'uliyatiga katta e'tibor berildi. Buning natijasida, tadbirkorlik faoliyati uchun erkinlik va qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek,

mulkdorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi. Har bir tadbirkorlik sub'ekti davlat va jamiyatning manfaatlariga zid bo'lmagan faoliyat yuritishi, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan mas'ul bo'lishi shart. Bu qonunlar tadbirkorlarning faoliyatini to'g'ri yo'naltirish va ularning jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Konstitutsiya hamda tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda davlatning iqtisodiy siyosatini qo'llab-quvvatlaydigan mexanizm va institutlar, ya'ni biznesni dastaklash, kreditlash va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish, shuningdek, iqtisodiy raqobat va bozor munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qadamlar belgilangan. Tadbirkorlarning ijtimoiy mas'uliyati, ya'ni ular faoliyatining ekologik va ijtimoiy natijalarini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Bu omillar tadbirkorlar faoliyatini samarali tartibga solish va ular faoliyatining ijobiy ta'sirini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solishda xalqaro standartlarga mos keladigan prinsip va huquqiy hujjatlar, xususan, mulk huquqi va tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, tadbirkorlar huquqlarini kafolatlashga qaratilgan qonun va me'yorlar qabul qilindi. Bu qonunlar tadbirkorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatli va odilona tartibga solishni ta'minlaydi. Davlat o'z o'zini boshqarish, qonuniylik va adolat prinsiplari asosida biznes muhitini rivojlantirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida iqtisodiy islohotlarni davom ettirishni nazarda tutadi. Bu yo'l bilan O'zbekistonda inklyuziv va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shu bois konstitutsiyada "Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi" [10] deb to'ldirildi.

O'zbekiston Respublikasida Senat tomonidan 2012 yil 23 martda ma'qullangan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni [11] qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim sohasi bo'lmish kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga, xususiyl tadbirkorlar huquqlari kafolatlari va himoyasining kuchli tizimini yaratishga katta e'tibor berib kelinmoqda.

Tadbirkorlar xuquqlarining himoya qilinishini ta'minlash borasidagi huquqiy normalar mustahkamlandi, tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik faoliyatiga nazorat qiluvchi idoralarning aralashuvini keskin qisqartirish choralari ko'rildi.

O'zbekiston qonunchilik tizimida iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa, tadbirkorlik sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish borasida so'nggi yillarda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2011 yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinib, shu munosabat bilan Prezident tomonidan tadbirkorlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [12] gi Farmon PF-4354-sonli bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini shakllantirish choralari belgilandi. Bundan tashqari "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" [13] gi PQ-1604-son qarorlar orqali ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari soddalashtirildi hamda ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etildi.

Ushbu islohotlar natijasida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy kafolatlari mustahkamlandi va biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi yil sayin oshib bordi. Agar 2000 yilda ularning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 33,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich 48,2 foizgacha o'sdi, bu sohadagi islohotlar samaradorligidan dalolat beradi [14].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin:

- zamonaviy dunyoda hayotning boshqa jabhalarida ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga solishda davlat va hukumat o'z vakolatlari hamda vazifalaridan kelib chiqib, siyosiy va huquqiy asoslarni yaratadi. Bu hol mamlakatdagi hamma ijtimoiy qatlamlar uchun muhim bo'lgan iqtisodiy munosabatlar uchun zarur;

- Bunday holat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'lgani kabi mustaqil O'zbekistonda iqtisodiy hayot, mulkiy munosabatlarni tartibga solish, tasarruf qilish, tadbirkorlikning barcha daraja va turlaridan qat'i nazar, xizmatlar ko'rsatish va tovarlar ishlab chiqarish, iste'molchiga yetkazishning butun tizimini tartibga soluvchi qonunlar, qonunosti hujjatlar, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda;

- lekin, shaxs va jamiyatda mas'uliyat, ijtimoiy mas'uliyat, tadbirkorlik fazilatlarini, adolatlilik, saxovat, muruvvat, xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi xususiyatlarni qonunlashtirish yo'li bilan shakllantirishning imkoniyati yo'q;

- tadbirkorlarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda huquqiy asoslardan ko'ra ularda insonparvarlik, insoniylik, adolatlilik, latiflik kabi axloqiy-estetik, ma'naviy fazilatlar falsafiy-ma'naviy ozuqa bilan to'yinishi kerak;

- respublikada tadbirkorlarga imkoniyat, shart-sharoitlarning huquqiy asoslari yaratilib kun sayin to'ldirilib, takomillashib borayotgan bo'lishiga qaramasdan, tadbirkorlar bu imkoniyatdan sog'lom maqsadda foydalanmayotganligini misollar vositasida ko'rsatib o'tdik;

- bu kabi hollar tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy mas'uliyat masalalari, muammolari bo'yicha uzluksiz, targ'ibot ishlari olib borishni taqozo qiladi. Bu targ'ibotlar negizi ilmiy-falsafiy asoslarga ega bo'lishi lozim. Nazarimizda, mavzuning dolzarbligi ham ana shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
2. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. <https://daryo.uz/k/2017/08/31/shavkat-mirziyoyevning-toshkentda-islom-karimov-haykalining-ochilishidagi-nutqi>
4. <https://xabar.uz/mahalliy/ozbekistonning-tadbirkorlik-kodeksi-qabul-qilinyapti>
5. https://www.norma.uz/uz/nhh_loyihalari/tadbirkorlik_kodeksi_biznesni_tartibga_soladi
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. [https://lex.uz/docs/20596?ONDATE2=01.05.2023 &action=compare](https://lex.uz/docs/20596?ONDATE2=01.05.2023&action=compare)
7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси <https://lex.uz/docs/6445145>
8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 65 модда. <https://lex.uz/docs/6445145>
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. <https://lex.uz/docs/6445145>
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. <https://lex.uz/docs/6445145>
11. «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. <https://lex.uz/acts/2006789>
12. <https://lex.uz/docs/1856013>
13. <https://lex.uz/docs/1861867>
14. <https://namangan.adliya.uz/namangan/uz/publikatsii/detail.php?ID=181>.